



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

5 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 5, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 5, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2022

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент кимё - технология институти

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербургда Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмудалиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алнева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети


**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон  
тиллари университети

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Aziza Aminova</b> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O'RNI VA ROLI.....	4
<b>2. Акбар Бабабеков</b> ЁМ ҚИШЛОҒИ ТАРИХИ ВА АҲОЛИСИНING ШАКЛЛАНИШИ ТАВСИФИ.....	9
<b>3. Акбар Даминов</b> “БОБУРНОМА”ДА ЗАРАФШОН ВОҲАСИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ВА ЕР-СУВ МУНОСАБАТЛАРИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР.....	19
<b>4. Бахтиёр Юлдашев</b> ЎЗБЕКISTON РЕСПУБЛИКАСИНING ТЕМИР ЙЎЛ СОҲАСИДА ДАВЛАТ СИЁСАТИ.....	24
<b>5. Дилшод Комолов</b> ЎЗБЕКISTON РЕСПУБЛИКАСИДА МУСТАҚИЛ СУД ҲОКИМИЯТИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ (1991-2000 йиллар мисолида).....	34
<b>6. Алишер Исоқбоев</b> ИСМОИЛБЕК ҒАСПРИНСКИЙНИНГ “ИСТИЛОИ ТУРКИСТОН” РИСОЛАСИ ҲАҚИДА.....	49
<b>7. Rashid Xolmurodov</b> O'LKAMIZ TARIXININI O'RGANISHDA ME'MORCHILIK VA SAYYONLIKNING ANAMIYATI.....	56
<b>8. Сабоҳат Абдураимова</b> ЧИРОҚЧИ БЕКЛИГИ АҲОЛИСИНING ХЎЖАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ ВА ИҚТИСОДИЙ-МАИШИЙ ҲАЁТИ.....	62
<b>9. Feruza Utayeva</b> BUKHORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	72
<b>10. Шахло Хусанова</b> МИНГТЕПА ЭТНОГРАФИЯСИ ҲАҚИДАГИ ТАРИХИЙ РОМАН (М. Эгамбердиевнинг “Сарик аждар ҳамласи” тарихий романи ҳақида).....	79
<b>11. Дилором Чориева</b> КУТУБХОНАЛАР ТАРИХИДАН: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1991-2016 йиллар).....	87
<b>12. Rustam Shukurov</b> BUKHORO AMIRLIGIDA ELCHILIK ISHLARI TARIXINING TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	98



**Feruz Xolmamatovna Utayeva,**  
katta o'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti

## **BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**For citation:** Feruz Kh.Utayeva, STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE TEXTILE INDUSTRY IN BUKHARA. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 5, pp.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Buxorodagi ip-gazlama kombinati qurilishida quruvchilarning ishlari, birinchi to'quv fabrikasining ishga tushirilishi haqidagi ma'lumotlar, hunarmandchilik sohasida texnika sanoatining rivojlanishi, shu asosda to'qimachilik sanoatida yuksak o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1969 yil 24 mayda Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurilishi haqidagi texnik loyiha tasdiqlandi va 1971 yilda qurilishga ruxsat berilgan. Maydoni 76 gektar yerda qurilish ishlarini 13-15 mingga yaqin ishchi va xizmatchilar ikki-uch navbatda ish olib borganlar. Buxoroda to'qimachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanishda mamlakatimizning turli viloyatlaridan mutaxassislar jalb etildi. To'qimachilik korxonasini ishchilari uchun ham sharoitlar yaratildi. Jumladan oshxona va turar joylar, manzilga yetkazish uchun avtomobillar. Maqolada mavzuga ta'luqli arxiv manbalar va matbuot materiallari tahlil etildi.

**Kalit so'zlar:** yengil sanoat korxonasi, paxta, pilla, yigiruv va to'quvchilik, pardozlash, gaz, to'qimachilik, Buxoro haqiqati, loyiha, mutaxassislar.

---

**Феруза Холматовна Утаева,**  
старший преподаватель,  
Бухарский государственный университет

## **ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ БУХАРЫ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье описывается работа строителей на строительстве хлопчатобумажной фабрики в Бухаре, сведения о пуске первой ткацкой фабрики, развитии технической промышленности в области ремесел, на этой основе высокие изменения в текстильной промышленности. 24 мая 1969 года был утвержден технический проект строительства текстильной фабрики в Бухаре и в 1971 году выдано разрешение на строительство. На участке площадью 76 га в две-три смены работало около 13-15 тысяч рабочих и служащих. К становлению и развитию текстильной промышленности Бухары привлекались специалисты из разных регионов страны. Созданы условия и для текстильщиков. Созданы условия и для текстильщиков. В том числе кухни и

жилые помещения, автомобили до места назначения. В статье анализируются соответствующие архивные источники и материалы прессы.

**Ключевые слова:** Предприятие легкой промышленности, хлопчатобумажная, коконная, прядильно-ткацкая, отделочная, газовая, текстильная, Бухарская правда, проект, специалисты.

**Feruza Kh.Utayeva,**  
head teacher, Bukhara State University

## STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE TEXTILE INDUSTRY IN BUKHARA

### ABSTRACT

The article describes the work of builders in the construction of a cotton mill in Bukhara, information about the launch of the first weaving mill, the development of the technical industry in the field of handicrafts, on this basis, high changes in the textile industry. On May 24, 1969, the technical project for the construction of a textile mill in Bukhara was approved and in 1971 the construction was approved. About 13-15,000 workers and employees worked in two or three shifts on the 76-hectare site. Specialists from different regions of the country were involved in the formation and development of the textile industry in Bukhara. Conditions have also been created for textile workers. Including kitchen and living quarters, cars to the destination. The article analyzes relevant archival sources and press materials.

**Index Terms:** Light industry enterprise, cotton, cocoon, spinning and weaving, finishing, gas, textile, Bukharskaya Pravda, project, specialists.

### 1. Dolzarbligi:

Xalqimiz tarixiga nazar solsak, ular o'rtasida Xitoy, Hindiston, Yevropa, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borib, ushbu yurtlarning hunarmandlari, kosiblari, ishbiarmonlari bilan hamnafaslikda olam ahlining ilm-fan va amaliyot ilmidan bahra olishga intilganlar. Asrlar davomida hunarmandchilik sohasida mamlakatimiz xalqi juda katta mehnat qilgan va yutuqlarga erishgan. Zamona zayli bilan hunarmandchilik sohasida texnika sanoati rivojlandi shu asosda to'qimachilik sanoatida ham yuksak o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maqolada Buxorodagi to'qimachilik sanoatining asosiy to'qimachi korxonasi Buxoro ip-gazlama tashkiloti qurilishi faoliyati arxiv va kehg matbuot materiallaridagi ma'lumotlar asosida yoritilgan bo'lib, Buxoroda to'qimachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### 2. Metodlar:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoillari asosida yozilgan bo'lib, unda Buxoroda to'qimachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Mamlakatimizda yengil sanoat mahsulotlarini sanoat asosida ishlab chiqarish XIX asrning oxirida, 1874 yilda Toshkent shahrida paxta tozalash zavodi qurilishi bilan boshlangan, O'zbekistonda qator paxta tozalash zavodlari: 1881 yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida, 1890 yilda Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida, 1898 yilda Buxoro viloyatining Qorako'l shahrida va Respublikamizning boshqa mintaqalarida zavodlar qurilib ishga tushirildi. 1927 yilda Farg'onada qurilgan pillakashlik fabrikasi Respublikamizda ipakchilik sanoati yaratilishiga asos soldi. 1927 yilda Samarqandda, 1928 yili Buxoro va Marg'ilonda pillakashlik korxonalari qurildi. Toshkentda to'qimachilik kombinatining 1934 yilda ishga tushirildi. 1939 yildan Buxoro pillakashlik fabrikasining 2-navbati ishga tushirildi. 1948 yili Toshkent trikotaj fabrikasi ishga tushdi. 1960 yillarning o'rtalarida Namanganda gazlamalar ishlab chiqarish kombinati va Toshkentda "Malika" trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi, 1970 yillarda Xivada gilam kombinati va Buxoroda ip gazlamalar ishlab chiqarish to'qimachilik kombinatining birinchi navbati ishga tushdi. Zahmatkash,

fidoiy xalqimiz Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurib berishini hukumatdan iltimos qilib so'ragan. Oradan o'n yillar o'tib, Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurish haqida farmon chiqadi. Mamlakatimizdagi bu vaqtdagi vaziyatdan kelib chiqib, 1970 yilda 1960 yilga nisbatan 25 mln. metr, 1965 yilga nisbatan esa 44 mln. metrga to'qimachilik hajmi kamaydi. Shu sababli, Ittifoq hukumati 60 yillar ohiri 70 yillar boshida har biri umumiy quvvati 240 ming urchuq va 6000 to'quv dastgohga ega ikkita yigiruv-to'quv va pardoqlash fabrikasi bilan yiliga 109 mln. metr gazlama ishlab chiqarishga qodir bo'lgan Buxoro va Andijon ip-gazlama kombinatlari qurilishiga ruxsat berdi [2].

Ittifoq Yengil sanoat vazirining 1969 yil 24 mayda Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurilishi haqidagi texnik loyiha tasdiqlandi. O'zbekiston SSR Yengil Sanoat Vazirligining 1970 yil 26 mayda 216-son buyrug'ining 2-son nizomi: Nizomga ko'ra, ilova qilib ko'rsatiladiki, O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1970 yil 10 apreldagi № 384- buyrug'i va 1970 yil 20 apreldagi №156-son Yengil Sanoat vazirligining buyrug'i asosida Buxoro shahrida qurilishi rejalashtirilgan ip-gazlama kombinatini tashkil etishga ruxsat berildi. Loyihalashni Toshkentdagi GPI-4 (4-son Davlat loyihalashtirish institutiga topshirildi). Loyihalashtirish ishlari uch yil davom etgan va nihoyat, 1971 yilda qurilishga ruxsat berilgan. GPI-4 direktori Nurmatov va bosh loyihachi kombinat qurilishi loyihasiga javobgar shaxs Pogrebinskiy Oskar Nayimovich nazoratiga topshirildi. [1]

SSSR Vazirlar Kengashining qarori bilan tasdiqlangan "Uzoq muddatli investitsiyalar bo'yicha banklar tomonidan qurilishni moliyalashtirish qoidalari" ga asoslanadi. 1955 yil 24 avgustdagi 1552-son va qurilish hukumatining boshqa qarorlari va SSSR Vazirlar Kengashining ko'rsatilgan qoidalar va qarorlari bilan o'ziga yuklangan qurilish qurilayotgan korxonalar rahbariyati ehtiyojlarini ta'minlash uchun javobgardir [2]. 1970 yilda qurilishi rejalashtirilgan Buxoro ip-gazlama kombinatini bu ko'rsatilgan qaror bo'yicha kombinat qurilishi loyihasi asosida ishlar boshlab yuborildi.

Buxoro ip-gazlama kombinatini qurilish ishlari bo'yicha direktor N.Mixal'kov va qurilish ishlari bo'yicha ma'sul hisobchi A.Chanchinaning hisobotlarida [3] qayd etilishicha: O'zSSR yengil sanoat vazirligi Toshkent shahar O'zbekiston qurilish bankining Toshkent viloyat boshqarmasi Buxoro viloyat statistika boshqarmasi Buxoro shahridagi qurilayotgan ip-gazlama kombinati direksiyasi kapital qo'yilmalar hajmi bo'yicha yillik hisobotga hisob-kitoblarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritayotganligini keltirib o'tgan. 1970-yil 1-dekabr kapital qo'yilmalar bo'yicha tugallanmagan ishlar va asosiy vositalarni sotib olish yil boshida 325, hisobot davri oxirida 1514 ni tashkil etgan.

Maydoni 76 gektar yerda qurilish ishlari olib borilgan. 13-15 mingga yaqin ishchi va xizmatchilar ikki-uch navbatda ish olib borganlar. Toshkentdan, Chirchiqdan, Chilyabinskdan, Navoiydan va boshqa joylardan mutaxassislar jalb qilindi. Yer usti va yer osti muhandislik tarmoqlari – kabellar, suv, gaz, kanalizatsiya, par-bug', tom tepasida yurish uchun muljallangan temir panjarali yulaklar, havo quvurlari, bularning hammasi hisobga olinib muljallangan loyiha asosida qurilish ishlari olib borildi.

Korxonalar qurilish ishlari 1971 yillarning eng yuqori texnologiyalar asosida olib borildi. Korxonalar qurilish ishlari juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirganligini korxonalar quruvchisi Mahmudjon Zokirov quyidagicha takidlaydi: "Qimmatbaho uskunalarning jumladan 2 ta 5 tonnalik avtopogruzchik, 1 ta avtokran, 4 ta eski yuk mashinasi olib kelindi, biz ularni ish boshlanguncha vaqtincha saqlashimiz kerak edi, lekin bizda saqlash uchun qurilish qonun-qoidalariga mos keladigan joy yo'q edi" [3].

Cheksiz azob uqubatlar bilan qurib bitkazilgan Buxoro ip-gazlama kombinati 1973 yilning oxirgi kunlarida davlat nazorati ostida qabul qilib olindi. O'zbekiston yengil sanoat vazirining muovini Obid Sakiyev nazorati ostida qabul qilish Ittifoq yengil sanoati vazirining 1973 yil 15 maydagi 250-sonli buyrug'i asosida tayinlangan edi. Qabul qilish komiteti a'zolari Kombinatar qurilishi direktori S.B.Baratov, bosh loyihachi O.N.Pogrobinskiy hamkorligida qabul qilish nazorati olib borildi. Tekshirish natijasida aytilgan kamchiliklar tuzatilib, 1973 yil fevral oyining boshida birinchi kompleks majmuasi ishga tushirishirildi. 1973 yilning 1-choragida mo'ljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishga kelishildi va qaror qabul qilindi. Kengashda O'zbekiston Qurilish vaziri G.S.Sobirov, yengil sanoat vaziri F.S.Xodjayev, viloyat rahbarlari, qurilish montaj,

ishlab chiqarish, sozlovchi, energoresurslar tashkilotlari rahbarlari qarorga qo'l qo'ydilar. 1973 yilning 17-18-19-20 fevral kunlari qurilish va montaj ishlariga yetishmaydigan mahsulotlar va uskunalarni Moskvadan olib kelish uchun borilgan kunlari, Buxoro ip-yigiruv sanoat korxonasi qurilishi davom etayotgan qismida yong'in sodir bo'lgan. Yong'in chiqqan joy katta maydonni tashkil etgan. Payvandlash paytidagi ehtiyotsizlik yong'inga sabab bo'lgan. Yong'in 40-45 minut davom etgan. Kombinatda bo'lgan fojeani Respublika rahbari Sh.Rashidov "Hech kim zarar va talofat ko'rgani yo'q", deb markazga xabar beradi. Ittifoq rahbariyati tomonidan korxonada bir yil ichida qayta ta'mirlanib yil oxirigacha ishga tushirilsin, deb topshiriq berilgan. Qurilish shtab boshlig'i, Buxoro shahar rahbari Umar Hamroyevich Kamolov tunu-kun to'qimachilik korxonasi qayta ta'mirlash ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Buxoro viloyatidagi tumanlarning mehnatkashlari shanbaliklarda beminnat yordamlari bilan to'qimachilik korxonasi qurayotgan quruvchilarga madad berib turdilar. Bundan tashqari Respublika qurilish montaj tashkilotlari yaqindan yordamlashdilar.

Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishida eng mas'uliyatli va qiyin palla boshlandi. Ko'mirchi va montajchilarning qariyb ikki mehnati samarasini sinovdan o'tkazishning payti kun sayin qiyinlashib bormoqda. Shuning uchun ham binokor va montajchilar ulkan korxonaning birinchi yigiruv tikuv fabrikasini foydalanishga topshirish uchun qolgan qisqa muddatlarda barcha dastgohlarni ishga solib qo'yish paytida kunni tunga ulab mehnat qilishdi. Birinchi-yigiruv-tikuv fabrikasi va unga bog'liq bo'lgan barcha obyektlar ulkan bir kompleksni bunyod etish uchun 16 ming tonna metall konstruksiyalari sarflandi. Fabrikaga 600 mingdan ortiq turli xil elektr boshqaruv pultlari o'tkazildi. Korxonaning avtomatik sistemalarini boshqaradigan 400 ta pult elektr tarmog'idan foydalanishni bir maromga soladigan 96 ta pult montaj qilindi, 19 million so'mlik turli xil dastgohlar o'rnatildi. Bu uskunalarni mamlakatimizning yuzlab shaharlari sanoat korxonalarida ishlab chiqargan.

To'qimachilik stanoklarining bir qismi Germaniya Demokratik Respublikasida tayyorlangan. 163-qurilish trestining barcha bo'linmalari va qudrat tashkilotlarining binokorlari 93-ixtisoslashgan trestning serg'ayrat montajchilari mehnati turibdi. Beton poydevorlar ko'tarish ham tugadi. 93-ixtisoslashtirilgan trestning Buxordagi mexanizatsiyalashtirilgan ko'chma montaj ishlarini tugatib, barcha kuchlarini bug' xo'jaligini barpo qilishga qaratdi. Bug' qozonxonalaridagi asosiy uskunalarni montaj qilinib, tugatildi va ular sinovdan o'tkazildi. Montajchilar va sozlovchilar: Qodir Jumaniyozov, Qodir Qulopdikov va Nuriddin Nurullayev boshqariladigan montajchilar brigadalari alohida mardlik va matonat ko'rsatib ishladilar. Ularning g'ayrati tufayli yillik montaj ishlari topshirig'i bajarilgani haqidagi hujjatga imzo chekildi. 100 mingdan ortiq yigiruv urchug'ini o'rnatdilar. Ularni sozlash ishlarini tugatib, sinash maqsadida dastlab mahsulotni ishlab chiqarishga kirishildi.

Toshkent va Farg'onadagi to'qimachilik kombinatlarida kasb o'rganib kelgan Oliy Halimova, Muhabbat Ne'matova Gulchehra Rajabova singari o'nlab yosh to'qimachilar mana shu dastgohlarni boshqarib, Buxoro gazlamasini ishlab chiqarishdi. Leningrad, Minsk, Olmaota shaharlaridagi boshqarmalardan kelgan 270 nafar yuksak malakali montajchilar fabrika uskunalarini o'rnatdilar. Ularga S.Serbnikov, V.Balashov, A.P.Vezverxov, I.Kurochkin, V.Bashenov singari o'z kasbining mohir ustalari boshchilik qildilar.[4]

Ip-gazlama kombinati qurilishida ish boshlanishi bilanoq Buxoro shahridagi umumiy ovqatlanish trestining oltinchi birlashmasi qurilish maydonchasida oshxonada tashkil qilindi. Oshxonada binokorlarning talabiga yarasha taomlar pishirilardi. Mohir pazanda Sulaymon Balayev, oshxonada xizmatchilaridan Muattar Sultonova, Halima Rasulova zarbdorlarga yelib-yugurib, xizmat ko'rsatgan. Oshxonada ko'pgina jihozlar yetishmasligi, texnika uskunalarining yetarli emasligi ish unumiga salbiy ta'sir qilardi, taomlar sifatini talab darajasida saqlashga imkon bo'lmagan. "Biz bir smenada ishlasak ham 400-450 xo'randaga xizmat ko'rsatayapmiz. Achinarlisi shundaki, oshxonada taomlar tayyorlaniladi, bu ovqatlar aslini olganda, maktab o'quvchilari uchun pishirilishi lozim. Zarbdor qurilish ishchilari jismoniy mehnat qiladilar. Ular uchun tayyorlanadigan taomlar darajasi, ya'ni kalloriyasi kuchli bo'lishi lozim. Bu shubhasiz, quruvchi-montajchilarning mehnat unumiga barakali ta'sir ko'rsatgan bo'lur edi, deb yozadi oshxonada pazandasi. [5]

1973 yil 19 oktyabrda yong'indan so'nggi birinchi erishilgan muvaffaqiyat bu – to'quv fabrikasining butun maydoni yopilib, ishga tayyor ekanligi edi. O'zbekiston Kommunistik Partiyasining birinchi kotibi Sh.R.Rashidov Buxoro up-gazlama kombinatiga tashrif buyuradi va ishchilar, montajchilar bilan suhbat jarayonida korxonada yong'indan keyingi talofatni tezda bartaraf etganligi va korxonada ish sur'atlarini oshirishlari haqida topshiriq va vazifalar beradi.

Birinchi to'quv fabrikasi ishga tushirildi, yiliga 5830 5 tonna ip yigiriladi va yiliga 41 million kvadrat metr gazlama to'qib chiqarish quvvatiga ega bo'lgan kombinatning qurulish ko'lami juda ulkan, ishlab chiqarish xonalarining maydoni qariyb 12 gektarni tashkil qiladi. Ularda vatanimiz va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng zamonaviy yigiruv tikuv dastgohlari o'rnatildi. Unga 1609 dastgoh va 150000 yigiruv eshuv urchig'iga ega bo'lgan mashinalar o'rnatilgan. Ularda ikki mingdan ziyod tikuvchi xotin-qizlar mehnat qilgan. Bundan tashqari sexdagi ish jarayonlari televideniya sistemasi orqali boshqariladi. Kombinatda 3 ta maishiy xizmat ko'rsatish korpusi, yechinish-kiyinish xonalari, uchta oshxona mavjud bo'lib, bu yerda to'quvchilar samarali mehnat qilishi va miriqib hordiq chiqarishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar muhayyo bo'lgan. Komsomol zarbdor qurilishini tiklashda quruvchilar va montajchilar qurilish industriyasining eng so'nggi yutuqlaridan mohirona foydalangan.

Mamlakatimiz yengil sanoat korxonasini bunyod etishda birinchi marotaba konveyer usuli qo'llanilishi, ya'ni yirik bloklarning murakkab sistemalari shu yerda montaj qilinadi. [6] Ana shunday bloklarni qo'llash qurilish sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Toqimachilik korxonasi kengligini barpo etishda sovet ittifoqidagi ko'pgina sanoat korxonalarining kollektivlari yaqindan yordam ko'rsatdilar. Ular qurilish uchun zarur bo'lgan materiallar va asbob uskunalarini o'z vaqtida yetkazib berdilar. Bu esa binokorlarning o'z zimmasiga olgan sotsialistik majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlashga imkon berdi. 1973 yil avgust oylarida quvonchli kunlarda buxoroliklar Toshkent mashinasozlik korxonasi ishchilariga o'zlarining minnatdorchiliklarini izhor qiladilar. Korxonada bunyodkorlari kechayu-kunduz g'ayrat va ilhom bilan mehnat qildilar. Bu borada mexanizmlarning qurilishi bir daqiqa ham tinmaydi. Bunday ulkan yutuqni qo'lga kiritishda zarbdor bo'lgan komsomol va yoshlarning qo'shgan hissalarini ayniqsa, katta bo'ldi. Anatoliy Konovalov, Shovqi Gadoev va boshqa komsomol yoshlar brigadalari a'zolarining ishlarini alohida qayd etish kerak. Besh yillikning hal qiluvchi uchinchi yili sotsialistik musobaqasida Vichslav Migunov, Ubay Muhitdinov boshliq kollektiv 1975 yil yanvar oyi hisobiga ishlagan. Birinchi navbatda ishga tushirilishiga hissa qishgan mehnat qahramonlari binokorlar va montajchilarning hammasida ulug'vor niyati, ya'ni besh yillikning to'rtinchi yilida ham fidokorona mehnat qilish va ikkinchi to'quv fabrikasini muddatidan oldin ishga tushirish uchun aniq, muqobil planlar qabul qilib ishlarini olib bordilar. [5]

Buxoro to'qimachilik kombinatining qurilishida Butunittifoq yoshlar qurilishi, deb e'lon qilindi. Yozgi ta'tillarda viloyat va respublika yoshlari quruvchilarga yordamga kelib, qurilish maydonida madad bo'ldilar. Yoz oylarida qurilish maydonida 10-12 ming nafar ishchi o'z mehnatlari bilan qatnashganlar.

Fidokorona mehnatlari bilan komsomol shon-shuhrati yilnomasiga yana bir oltin sahifani bitgan zarbdor qurilish yoshlari chindan ham har kun, har soat mardlik, fidokorlik namunalarini ko'rsatdilar. Yozning eng qizg'in kunlaridagi partiya va hukumat topshirig'ini muddatidan oldin bajarishga qat'iy ishonch bildirgan holda mehnat qildilar. Ip-yigiruv fabrikasining 60 ming dastgohini 1973 yil 20-dekabrgacha ishga tushirishni muhim vazifa, deb bildilar. Zarbdor qurilishda dong taratgan Shavqi Gadoev boshliq o'n bir kishidan iborat komsomol yoshlar brigadasi a'zolari qurilish maydonida, ajoyib tashabbuslari bilan hammani hayratga soluvchi bu brigada yoshlari shanba bo'lishiga qaramay, ishga chiqib, tushgacha bir kunlik normani bajargan. "Yosh Leninchi" gazetasining maxsus muxbiri "Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi" jarayonlarida Shavqi Gadoev bilan olib borgan suhbatlarida "Brigada yangi tashkil etilgan paytlarda, ya'ni yetti sakkiz oy oldin yigitlarning ko'pchiligi biron kasbga ega emas edi. Hozir esa, ularning hammasi ikki-uch kasbni o'zlashtirib olgan. O'n bir kishidan to'qqiztamiz Toshkent politexnika Instituti umumtexnika fakultetida o'qiyapmiz", deb fikr bildiradi. [6]

1973 yil aprel oyidan o'tgan olti oy mobaynida uch yuzdan ortiq yoshlar komsomol yo'llanmalari bilan zarbdor qurilishga kelishdi. Buxoro shahar komsomol komitetining murojaatiga javoban 112 student qurilishda 3-5 oydan ishlab berdi. Shahardagi pillakashlik fabrikasi komsomollarining tashabbusi bilan 60 dan ortiq yigit-qiz quruvchilar bilan baravar ter to'kishdi. Ularning ko'pchiligida dastlabki paytlarda malaka va mahorat yetishmaydi. Shuning uchun kadrlar malakasi, ularning mahoratini muttasil oshirib borish komsomol tashkilotining muhim vazifalaridan biri edi. G'isht teruvchi A.Saidov, kranchi Yuriy Grebnyov, gruppа komsomol tashkilotchisi S.Lukyanov, Azim Sandov bu sohada "UNR-987" qurilish tashkilotining ijobiy tajribalarini gapirib: "...qurilish obyektlarida ko'pchilik yoshlarning ishi yurishmasdi, tuzukroqlari ham bittagina kasbni bilardi, xolos. Komsomollar maslahatlashib, yoshlarni tajribali ishchilarga birlashtirib qo'yishga qaror qilishdi. Bu taklifni kattalar ham ma'qullashdi. Malakali ishchilar yoshlarga o'z mahoratlarini o'rgatishga rozi bo'lishdi. Natijada tez orada Oleg Braman, Ural Gusmanov kabi anchagina yoshlar aralash kasblarni egallab olishdi. Shu yoshlardan tuzilgan komsomol yoshlar kompleks brigadasi inshootlar poydevoridan boshlab to pardoqlashgacha bo'lgan hamma ishlarni bemalol bajarishadi, komsomol gruppalari faoliyatini kuchaytirish ishini jonlantirish, yoshlarning umumanta'lim, siyosiy va iqtisodiy bilim darajalarini oshirish kabi muhim masalalar bo'yicha foydali takliflarni o'rta tashlashdi", deya fikr bildirgan. ("Yosh Leninchi" gazetasining maxsus muxbirining "Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi" jarayonlarida olib borgan suhbatlaridan).

1973 yili "Buxoro haqiqati" gazetasida "Uskunalar ishga soz" maqolasida "Soyuzlegprompuskonaladka" trestining sozlovchisi N.Seleznyov Buxoro ip-gazlama kombinati qurilish alohida ahamiyatga ega, lekin uni uskunalar bilan ta'minlash yoki uskunalarni soz holatda ishga tushirishning ma'suliyati kattaligini aytib o'tgan. Maqolada ta'kidlanishicha, N.Seleznyov Oshdagi ip-gazlama kombinati, Kemerovo va Namangandagi shoyi va kostyumbop gazlamalar, Blagoveshchensk dagi paxta yigiruv fabrikalari dastgohlarini ishga sozlashda qatnashgan, endilikda Buxoro ip-gazlama kombinati yigiruv dastgohlarini sozlashda qatnashganligini faxr bilan tilga olgan. Kombinatga Ul'yanovsk, Kamishin, Ivanova, Toshkent, Farg'ona shaharlaridagi uchastkalaridan 80 dan ortiq yuksak ixtisosli mutaxassislar kelgandi. Hali fabrikada binokorlik ishlari tugamagan, montaj ishlari avj pallasida bo'lishiga qaramay o'rnatilgan dastgohlarni peshma-pesh sozlashga kirishdik. 17-noyabrdayoq xomaki dastgohlar tuhfa qildi. Birinchi navbatga taalluqli barcha uskunalar ishga sozlandi. Hamkasblarimdan Tixonov, B.Stepanov, Yu.Zaysev, V.Selyutin, Yu.Ushken, A.Raskov, A.Subbotinlar bajargan ishlarni Davlat qabul komissiyasi tomonidan yuksak baholagan. [7]

Juda katta va misli ko'rilmagan ish 8 oy ichida bajarilgan. 1974 yil 11 fevralda "Pravda" gazetasida Ittifoq hukumatining quruvchilarga, montajchilarga va ishlab chiqaruvchilarga tabrigi e'lon qilindi. Ahamiyatlisi shundaki, Buxoroda Toshkent politexnika institutining filiali ochilgan bo'lib, unda tahsil olib malakasini oshirgan talabalar o'z amaliyotlarini shu to'qimachilik korxonasida olib bordilar. [9] Toshkent yengil sanoat institutining ilk qaldirg'ochlari, ya'ni bitiruvchilari 1974 yildan Buxoro to'qimachilik sanoat korxonasida ish faoliyatlarini boshladilar. Bundan tashqari, Farg'ona texnika bilim yurtida tahsil olib kelgan to'quvchi-yigiruvchi mutaxassislar ham shu korxonada ishlay boshladilar. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, korxonaga kelib ishlaydiganlarning ko'pchiligi tumanlardan kelib ishlaydigan ishchilar bo'lib, ularni turar joy masalasi qiynar edi. Bu masala bo'yicha ham viloyat rahbarlari tomonidan tez amaliy yordam choralari ko'rildi. Korxonada ishchilari uchun yotoqxonalar, uy-joylar, tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy madaniy yordam ko'rsatish muassasalari, maishiy xizmat uylari bunyod etildi.

1975-1976 yillarda matoga gul bosib, rangli matolar ishlab chiqarish amalga oshirila boshladi. Ittifoqdan mutaxassislar kelib, tajribalar almashinildi. 1977 yildan boshlab rangli bo'yoqli matolar va momiq sochiqlar ishlab chiqarila boshladi. Qurilish va qayta ta'mirlash ishlari davom etmoqda edi. Ko'pgina stanoklar eski holatida keltirib o'rnatilgan edi. Jihozlarni yangilash va pardoqlash ishlarni olib boorish uchun joylar yetishmasdi. Shuning uchun 1979 yil kombinat qurilishining ikkinchi navbati boshlandi.

#### **4.Xulosalar:**

Xulosa o'rnida aytish kerakki, Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish kombinatida katta hajmda halqa tukli sochiqbob va ommabob enli va ensiz gazlamalar dunyo standartiga to'g'ri keladigan qilib

ishlab chiqarildi. 1985 yilda gazlamani pardoqlash korxonasining ham to'qimalarni oqartirish sexi qo'rilishi boshlandi. 1981 yilda kombinatning 57600 don yigiruv mashinalari o'rnatilgan 2-yigiruv fabrikasi ishga tushdi. 1982 yilda 2100 dona STB-330 to'quv dastgohlari o'rnatilgan 2 to'quv fabrikasi ishlab chiqaradigan to'qimalarning katta qismi xom to'qima bo'lganligi kombinatning tarkibida mato pardoqlash fabrikasi ham ishga tushirilishini taqozo etdi. Shunday qilib, Buxoro kombinatining asosiy majmuasidan tashqari viloyatning turli shaharlarida korxonaning shahobchalari ham tashkil etildi.[10]

### Иктибослар/Сноски/ References:

1. Аҳмад Хўжаев // Суръат ошмоқда Бухоро ҳақиқати 1972 йил, 8-сентябр. (Ahmad Khodjaev // The pace is growing. The truth of Bukhara, September 8, 1972).
2. BVDA. 1236-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 3-varaq.
3. BVDA. 1236-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 1-varaq
4. Субҳиддин Баротов “Меҳнат яратган муъжиза”. (Бухоро тўқув фабрикаси қурилиши тарихидан лавҳалар) Бухоро нашриёти 2018 йил. (Subhiddin Barotov "The Miracle of Labor". (Excerpts from the history of the construction of the Bukhara weaving factory) Bukhara Publishing House 2018)
5. М.Ашуров // So'nggi dovon Бухоро ҳақиқати 1973 йил апрел. (M.Ashurov // The last pass Bukhara truth April 1973)
6. А.Қодиқов. Комбинат қурилишидаги ошхона пазандаси.//Хизматимизни аямаймиз. Вухоро ҳақиқати 1972 йил 10 август. (A.Kadirov.Cooker in the construction of the plant.//We will not spare our service. The truth of Bukhara August 10, 1972.)
7. “Ёш Ленинчи” газетасининг махсус мухбирининг телефон орқали суҳбати Бухоро ип-газлама комбинати қурилишида.//Тўқимачилик гиганти “Ёш Ленинчи” 31-декабр 1973-йил, Душанба.( Telephone interview of a special correspondent of the newspaper "Yosh Leninchi" during the construction of the Bukhara yarn and cloth factory.// Textile giant "Yosh Leninchi" December 31, 1973, Dushanbe.)
8. С.Саидвалиев (Ёш Ленинчи газетаси махсус мухбири) // Сарҳисоб ва истиқбол ўйлари. Ёш Ленинчи, 1973 йил 3-август.( S. Saidvaliev (Special correspondent of the Young Leninist newspaper) // Summary and prospects. Young Leninchi, August 3, 1973.)
9. FK Utaeva, NA Zhumaeva The interpretation of the reign of mangit rulers and their personality in periodical press Ўтмишга назар журнали 2019, 22 (2)
10. Вухорода то'қимачилик санотининг ривожланшида утуқ ва муаммолар. Совместное редакцией научно исследовательских журналов “Анвори илм” и “Тафаккури таърих” Тоҷикистон-2021. 28 декабри. В-725. (Achievements and challenges in the development of the textile industry in Bukhara. Sovmestnoe redaktsiey nauchno isledovatelskix zhurnalov “Anvori ilm” i “Tafakkuri tarikh” Tojikiston-2021. December 28. B-725)
11. Вухорода то'қимачилик sanoati qurilishi tarixining matbuotda yoritilishi. International journal of philosophical studies and social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>. Vol 1, Issue 4 2021. B-50-55.( Media coverage of the history of the construction of the textile industry in Bukhara. International journal of philosophical studies and social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 1, Issue 4 2021. B-50-55)
12. Mustaqillik yillarida Вухорода то'қимачилик sanoatining rivojlanishi. Хоразм Маъмун Академияси 2022 йил №1.( Development of textile industry in Bukhara during the years of independence. Khorezm Mamun Academy 2022 №1)
13. Вухоро viloyat davlat arxivi. 1236-fond, 1-ro'yxat,4-yig'majild,3-varaq.( Bukhara regional state archive. Fund 1236, List 1, Collection 4, Page 3)
14. BVDA.1236 –fond, 1- ro'yxat, 2-yig'ma jild, 1-varaq. (BVDA.1236 - Fund, List 1, Volume 2, Page 1).



**Шахло Хусанова Артикалиевна,**  
Андижон Давлат университети таянч докторанти  
turon95@mail.ru

**МИНГТЕПА ЭТНОГРАФИЯСИ ҲАҚИДАГИ ТАРИХИЙ РОМАН  
(М. Эгамбердиевнинг “Сариқ аждар ҳамласи” тарихий романи ҳақида)**

**For citation:** Shahlo H.Artikalievna, THE HISTORICAL NOVEL OF MINGTEPA ETHNOGRAPHY (About M. Egamberdiev’s historical novel “Yellow Dragon’s Attack”). Look to the past. 2022, vol. 5, issue 5, pp.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

**АННОТАЦИЯ**

Мазкур мақолада Манноп Эгамбердиевнинг “Сариқ аждар ҳамласи” тарихий романи, романнинг яратилиш тарихи, асарнинг қадимий Фарғона (Довон, Давань, Дай-юан) давлати ва унинг пойтахти Мингтепа (Эрши)[3,5,6,1,11] тарихини ёритишдаги аҳамияти ҳақида маълумотлар берилган. Қадимги Фарғона давлатига милоддан аввалги II – I асрларда Хан империясининг ҳарбий юришлари ва доvonликларнинг мардликлари, шунингдек, урф-одатлари, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти ушбу асарда бадиий юксак маҳорат билан ёритилганлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: Қадимги Фарғона (Довон, Давань, Дай-юан) давлати, Манноп Эгамбердиев, “Сариқ аждар ҳамласи” тарихий романи, “самовий тулпорлар”, Хан давлати, элчи Чжан Цянь, Мингтепа (Эрши) шаҳри, Буюк ипак йўлининг “Қашқар-Фарғона” бўлаги, Жўра ва Тўхтарнинг жасорати, доvonликларнинг урф-одатлари.

---

**Шахло Артикалиевна Хусанова,**  
Опорный докторант Андижанского  
Государственного университета  
turon95@mail.ru

**ИСТОРИЧЕСКИЙ РОМАН ОБ ЭТНОГРАФИИ МИНГТЕПА  
(Об историческом романе М.Эгамбердиева “Тень желтого дракона”)**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье приведены сведения по истории создания исторического романа М.Эгамбердиева “Тень желтого дракона”, значения произведения по освещению истории Ферганы (Довон, Давань, Дай-юан) и ее столицы Мингтепа (Эрши). Автор статьи показал, как в данном произведении с высоким художественным мастерством освещены обычаи, социально-экономическая и культурная жизнь населения, мужество даванцев при военных походах империи Хань в II-I вв до н.э. против Ферганского государства.